

**«BO‘LAJAK TASVIRIY SAN‘AT O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA
KASBIY KOMPETENTLIK MUAMMOSINI XORIJ PEDAGOGIKASI
TALQINIDA RIVOJLANTIRISH»**

Rustamov Abbosbek Jaxongir o‘g‘li.

Namangan Davlat universiteti

“San‘atshunoslik” fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini tayyorlashda kasbiy kompetentlik muammosi xorij pedagogikasi talqinining mazmuni va mohiyati to‘g‘risida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *kompetent, kasbiy kompetentlik, aktiv, passiv, fransuz modeli, NEA (National Endowment for the Arts).*

KIRISH:

Zamonaviy jamiyat ta‘lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma‘naviy va jismoniy sog‘lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo‘ymoqda. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta‘lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zaxirasini yaratish" vazifasi belgilandi.

Kompetentli pedagog - u kim? Uning shakllanish jarayoni qanday kechadi kabi savollar tug‘iladi. Shu nuqtai nazardan "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalar mazmun mohiyatini aniqlashimiz muhimdir. Har qanday o‘qituvchi ham kompetentlik" nimani anglatishini va u "kompetensiya"dan nimasi bilan farq qilishini bilavermaydi. "Kompetentlik" tushunchasi" pedagogning ma‘lumoti, ko‘nikmasi, qobiliyati va tajribasini o‘z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, uning ma‘lum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Aslida, ikkala atama o‘xshashdir. Bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ayniqsa ta‘limni modernizatsiyalash bilan bog‘liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan boyib bormoqda. Kasbiy kompetentlik tashhisi kasbiy shakllanishning mohiyatli xarakteristikalariga diagnostik, kommunikativlik, boshqaruv va proektiv o‘quvlar guruhlarini kiritish lozim. Pedagogning bilish faoliyati ko‘p jihatdan o‘rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta‘siri, ularni izlash, noaniqlik bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish malakasini nazarda tutadi. Mazkur holda o‘z-o‘zini tartibga solish xususiyatlari o‘z bilim va malakalarini doimo

takomillashtirish zarurati, boshqa odamlarga qaratilgan o'z hatti-harakatini qat'iy muvofiqlashtirish uquvi bilan tavsiflanadi.⁵

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy tarbiyalanganlik layoqatliligini tadqiq qilishga bag'ishlangan asarlarda uning quyidagi turlari bilan farq qilinadi:

- maxsus tarbiyalanganlik layoqatliligi

- kasbiy faoliyatini etarlicha yuqori darajada egallaganlik, o'zining kelgusi kasbiy rivojlanishini loyihalash qobiliyati; - ijtimoiy tarbiyalanganlik layoqatliligi

- birgalikdagi kasbiy faoliyatni, hamkorlikni va shuningdek, mazkur kitobda qabul qilingan kasbiy muloqat uslublarini egallaganlik, o'z kasbiy kasbi natijalari uchun ijtimoiy mas'ullik.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi, irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy ko'nikmalar, o'z-o'zini boshqara olish layoqatlarining o'zaro bog'liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantiriladi.

Yevropa davlatlarida shakllangan an'anaga muvofiq kasbiy malaka mutaxassisning kompetentligi, uni shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimi esa – bilim, ko'nikma va malakalar darajasi bilan o'lchanadi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini tayyorlashda muhim pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- zamonaviy talablarga javob bera oladigan me'yoriy va o'quv-metodik hujjatlar (davlat ta'lim standarti, namunaviy o'quv rejalari, ishchi o'quv rejalari, namunaviy o'quv dasturlari, ishchi dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyanomalar, qo'shimcha maxsus adabiyotlar, ko'rsatmali vositalar, dars ishlanmalari, loyihalar va boshqalar)ning mavjudligi;

- ilmiy pedagogik xodimlar (professor, dotsent, o'qituvchi, malakali o'quv ustalari, texnik xodimlar)ning bilim, ko'nikma va malakalarining yuksakligi, kasbiy kompetentlik darajasining etarlicha shakllanganligi hamda ilmiy salohiyatga ega bo'lishi;

- o'quv jarayonining moddiy-texnik (o'quv binolari, o'quv auditoriyalari, o'quv ustaxonalari, amaliy-laboratoriya jihozlari), axborot texnologiyalari (radio, televidenie, kompyuter, nusxa ko'chirish qurilmalari, laboratoriya asbob-uskunalar, audio, video, multimediya, trenajyorlar, kinoproektorlar, diaproektorlar, videoproektorlar, texnik vositalar majmuining mavjudligi va hokazolar) jihatdan etarlicha ta'minlanganligi;

- ijtimoiy va o'quv-texnologik jihatdan qulay muhit (o'qituvchilar, talabalar, rahbarlar hamda talabalar, shuningdek, talabalarining o'zaro munosabatlari mazmuni, yo'nalishi, maqsadlar birligi va boshqalar) yaratilganligi;

- tashkiliy hamda o'quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz hamda tizimli yo'lga qo'yilganligi.⁶

⁵ Ш.Шарипов, Н.Муслимов, М.Исмоилова: “Касбий таълим педагогикаси”.Методик қўлланма. – Т. 2005 й.

⁶ Ш.Шарипов, Н.Муслимов, М.Исмоилова: “Касбий таълим педагогикаси”.Методик қўлланма. – Т. 2005 й.

Xorij ta'lim tizimidagi o'qituvchilarning o'qitish salohiyatiga ularning kasbiy kompetensiyasiga nazar soladigan bo'lsak, ularda bizga nisbatan bir qancha farqli ravishda ta'lim tizimi joriy qilingan.

Germaniya va Frantsiyada kasbiy ta'limining tuzilmasi:

Bu kontsepsiya insonni shakllantirish sifatlarida bilish faoliyatini rad etib, hamma psixologik holatlar organizmning tashqi reaksiyasi deb tushuniladi, uning diqqat markazida harakat ko'rinishlari muammosi turib, uning ta'sirida o'quvchilarning qabul qilishini namoyish etishlari kerak.

1. Dalillarni eslab qolish.
2. Dalillarning ma'nosini tushunish.
3. Eslab qolingani qo'llash.

4. Mazmun va shaklini tahlil qilish. Bu jarayon qismlarga ajratilib, qismlar orasidagi bog'liqliklar yechiladi va keyin butun mexanizmni ishga tushishiga olib keladi.

5. Butunlikni qismlarda tushirish, bu jarayondagi ma'lumotlarni tushunarli va oddiygina qabul qilish;

6. U yoki bu narsani qimmatililigini va zarurligini anglash.

Ruhiy ko'nikma.

1. Daraja passiv: quloq, ko'z organlari orqali signal qabul qilib, diqqatni jamlash.
2. Aktiv: diqqatning biron bir narsaga o'z ta'sirini ko'rsatish.
3. Baho berish: kuzatish, ta'sir ko'rsatish, biror bir narsaga o'z ta'sirini ko'rsatish.
4. Tashkiliy g'oyalar: falsafiy ishlab chiqish, muammoli vaziyatlarni hal qilish. Biron bir qimmatli narsani ikkinchisidan farq qila olish.
5. Maqsadli faoliyat: tekshirilgan qiymatlar darajasiga ko'ra shaxs sifatida shakllangan, ijobiy va salbiy faoliyat turi.

O'qitish metodining ratsionalistik modeli o'quv materialini samarali o'zlashtirish, rivojlantirishning didaktik maqsadiga erishish, kommunikativ ijodiy faoliyatning mazmunini tashkil etuvchi kasbiy ta'limning shaxs sifatida shakllantirishdir.⁷

Ta'limning gumanistik jarayonlari.

Gumanistik ta'lim umuminsoniy qadriyatlarni ekologik muammolarini, ijodiy faoliyatini shakllantiruvchi ta'lim tizimidir. Yosh pedagoglarni shakllantirish kontsepsiyasi. Talabalarni o'quv yurtlarini bitirgandan keyin kasbga kirib borishlari ikki murakkab jarayonni o'z ichiga oladi.

1. O'qituvchi sifatida shakllanishi, sharoitga moslashish va pedagogik mahoratga ega bo'lish
2. Yangi ijtimoiy sharoitni o'rganish, unga baho berish va yangiliklar kiritish.

O'quv tarbiya jarayonida maqsad qo'yish ko'nikmasi.

Maqsadni aniq va to'g'ri tanlashgina, o'quv jarayonining asosiy komponentlari: o'zaro bog'liqligini, mazmunini, samaradorligini aniqlaydi. Aniq maqsadlar qo'yish faqatgina o'quvchilar faoliyatini aniq tashxislabgana qolmay, qo'yilgan maqsadga asosan

⁷ Худойкулов Х.Ж. Жуманова Ф.У. КАСБИЙ ПЕДАГОГИКА (ЎҚУВ ҚЎЛЛАНМА) ТОШКЕНТ – 2020

berilgan bilim natijasi o'qituvchilik faoliyatlariga ham bog'liq. Shunday qilib, aniq maqsad qo'yish bir tarafdin shaxsiy maqsad deb qaralsa, ikkinchi tarafdin umumiy maqsadga erishish deb qaraladi.

Umumiy maqsadlarni aniq qo'ya bilish, bilimga bo'lgan o'zlashtirish va munosabatni o'quvchida shakllantirishdir. Dunyo kasbiy ta'lim tizimini o'rganmay turib, bu sohada yangi shakllarni tuzib bo'lmaydi. Bu sohada bizga uzluksiz ta'lim tizimini olib boruvchi davlatlar tajribasi, ularning ishlab chiqqan ta'lim standartlari bizga juda zarur. Bugungi kunda Buyuk-Britaniyada uzluksiz ta'lim va kasbiy ta'limning yangi tizimi ishlab chiqildi. Bu tizim turli yo'nalishlardagi mutaxassislarini, shuningdek, boshlang'ich o'rta maktablarning o'qituvchilarini tayyorlashni nazarda tutgan.

Germaniyada kasbiy ta'lim tizimi.

Germaniyada bir necha murakkab tuzilmaga ega bo'lgan ta'lim tizimi qabul qilingan bo'lib, ta'lim oluvchilarni mutaxassislikka yo'llashda 3ta bosqichdagi maktablar tashkil etilib, ular o'z faoliyatini boshlang'ich ta'limdan keyin davom ettiradi. Germaniyada o'quv jarayonini tayyorlash va boshqarish markazlashtirilgandir.

O'quv jarayonining turli jabhalarida o'zining javobgarliklari bo'lib, u turli bosqichlarda turlichadir.

Olmoniyada kasbiy ta'limning tuzilmasi.

1-bosqich: Kasbiy ta'limga tayergarlikning birinchi yili (Nazariy bilimlar berilib ushbu kasbga yo'naltiriladi).

2-bosqich: O'quvchilar nazariy va amaliy oiladosh kasblar bilan ham tanishib boradilar (tugatilgandan keyin birinchi sinov olinadi).

3-bosqich: Mutaxassislashtirish jaraeni bo'lib, u imtihon bilan tugallanadi. Bu tizimda ta'lim oluvchilar ___ nazariy va amaliy bilimlarga hamda kasblar haqida tushunchaga ega bo'lishlari kerak. Qo'shimcha malaka hosil qilish bilan birga o'zlarining fikrlariga ega bo'lib, mehnat faoliyatiga o'z hissalarini qo'shishlari kerak.

1-2-bosqich keng ma'noda ishchilar tayerlab berib, ular oddiy ish jaraenlarini bajarib, murakkab jaraenlarda 3-bosqichga suyanadilar. 3-bosqich bo'lg'usi mutaxassis xodimlar nazariy ham amaliy bilimlarga ega bo'lib, qurilma va moslamalarni (stanoklarni) sozlash, tamirlash ishlarini bajaradilar.

Kasbiy ta'limning fransuz modeli.

Fransiyada maktabni bitirgach, kollejlarda o'qitish tizimi xukmronlik qiladi. Bu o'z navbatida erta kasb egallashtan asrab qoladi. Fransiyada boshlang'ich ta'lim asosan 11 yoshgacha bo'lib, keyin o'quvchi kollejdagi ta'lim oladi. Undan keyingi ta'limini o'quvchi umumta'lim yoki texnik litseylarda davom ettirishadi. Bugungi kunda texnik litseylar keng texnik bilimlarni berib, u asosida bakalavr unvonini olish mumkin. O'quv muassasasining ixtisosligiga qarab bakalavr fransuz tilini, sotsiologiya asoslarini, matematika, fizika, tabiiy fanlar, texnologiya fanlarini yaxshi egallaydilar. Texnologiya yo'nalishidagi bakalavrlar chet tillarni, kompyuter va tijorat bilimlariga ega bo'ladilar, hamma bakalavrlar oliy o'quv bilim yurtlarida ta'lim olish huquqiga egadirlar. Bakalavr unvonini olishni xohlagan ta'lim oluvchi navbatda maktabni, kollejni bitirganligi haqida

diplom olib, undan keyin 3 yil kasbiy litseylarda o'qishlari kerak. Malakali ishchilarni tayyorlashda davlat va xususiy litseylar faoliyat ko'rsatib, ularning hammasi davlat nazorati ostida bo'ladi. Kasbiy ta'limga o'qish jarayonini ta'lim vazirligi ishlab chiqib, uni ma'lum o'quv yilida ta'mirlash javobgarligi davlat zimmasidadir. Kasbiy ta'lim tizimining butun faoliyati markazlashgan bo'lib, o'quv mazmunini o'zgartiruvchi qonun va qarorlar davlat miqyosida qabul qilinadi. Umumiy kasbiy ta'limda o'qitish jarayoni bepuldir.⁸

Aqshda Tasviriy san'at ta'limi tizimi

Amerika Qo'shma shtatlarida badiiy ta'lim birinchi marta 1821 yilda sanoat inqilobi davrida me'moriy dizaynerlarga bo'lgan ehtiyoj natijasida davlat maktablariga kiritilgan, shundan so'ng davlat maktablari umummilliy o'sishni boshladi va badiiy o'qitishga sub'ektiv qiziqish paydo bo'ldi. 1870-yillarda ba'zi davlatlar o'zlarining davlat maktablariga badiiy o'quv dasturlarini ishlab chiqish uchun mablag' berishni boshladilar. Taxminan shu vaqt ichida bo'yoq va qog'oz kabi badiiy materiallar sifat jihatidan yaxshilana boshladi, bu esa badiiy ko'rsatmalarni klassik usullardan tashqari kengaytirishga imkon berdi.

Tasviriy san'atni o'rganish uchun oldinlari shogirt bo'lib o'rganish kerak bo'lgan, biroq 19-asrga kelib bunday odatlar yo'qolib insonlar mustaqil san'atni o'rganishni va san'at maktablari jadalik bilan ko'payish natijasida badiiy maktablar o'z o'rniga va mavqeyiga ega bo'la boshladi. Bugungi kunda Qo'shma Shtatlarda ta'limni moliyalashtirish uchta darajadan kelib chiqadi; mahalliy daraja, shtat darajasi va federal daraja. Ta'limning butun tizimi nazorat qilish va har qanday noto'g'ri fikrlardan qochish uchun davlat sektori qo'lida saqlanadi. Yaqinda AQSH ta'lim departamenti talabalarga akademik ma'lumotlarni yaxshiroq tushunish va saqlashga yordam beradigan badiiy o'quv dasturlarini ishlab chiqishda badiiy tajribaga ega tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash uchun ta'lim modellarini ishlab chiqish va tarqatish bo'yicha grantlarni berishni boshladi. Bunday ta'lim modellaridan biri 2006 yilda Storytellers Inc tomonidan yaratilgan. va ArtsTech (avval Pan-ta'lim instituti) o'quv dasturlari va o'qitish uslubi o'qi deb nomlangan.

AQSH milliy tashkilotlari

Badiiy san'at uchun Milliy Fond (National Endowment for the Arts) qo'shma Shtatlarda badiiy ta'limni targ'ib qiluvchi ko'plab milliy tan olingan tashkilotlardan biridir. 1965 yilda tashkil topganidan beri NEA (National Endowment for the Arts) san'atni barcha talabalari uchun asosiy ta'limning bir qismi sifatida birlashtirishga harakat qilmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar san'at ta'limi dasturlari uchun mablag' va grantlar so'rash va ta'minlash uchun davlat, federal va davlat-xususiy sherikliklarida hamkorlik qilishni o'z ichiga oladi. 2008 moliya yili davomida NEA (National Endowment for the Arts) talabalarga malakali rassomlar va o'qituvchilar bilan bilim olish va ishtirok etish imkoniyatini beradigan dasturlarga 200 dan ortiq 6,7 million dollarlik grantlar ajratdi.

NEA (National Endowment for the Arts) bir qator boshqa san'at ta'limi bo'yicha hamkorlik va tashabbuslarni boshladi, ularga quyidagilar kiradi:

-San'at ta'limi bo'yicha hamkorlik - badiiy ta'lim mavzularini muhokama qilish uchun forumlarni yig'adi, maktablarda badiiy ta'limning rolini qo'llab-quvvatlovchi tadqiqot

⁸ Худойкулов Х.Ж. Жуманова Ф.У. КАСБИЙ ПЕДАГОГИКА (ЎҚУВ ҚЎЛЛАНМА) ТОШКЕНТ – 2020

materiallarini nashr etadi va badiiy ta'lim manbalari materiallari uchun kliring markazi hisoblanadi.

-Strategik Milliy san'at bitiruvchilari loyihasi- bu doimiy ravishda onlayn so'rov o'tkazish tizimi bitiruvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'playdi, kuzatadi va tarqatadi va muassasalarga talabalar o'zlarining martabalarida va hayotlarining boshqa jihatlarida san'at mashg'ulotlaridan qanday foydalanishlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

-NEA (National Endowment for the Arts) ta'lim rahbarlari instituti (Education Leaders Institute)- davlat darajasida badiiy ta'limning sifati va miqdorini oshirish uchun asosiy qaror qabul qiluvchilarni chaqiradi. Har bir institut beshta shtatdan maktab rahbarlari, qonun chiqaruvchilar, siyosatchilar, o'qituvchilar, professional rassomlar, maslahatchilar va olimlardan iborat jamoalarni umumiy san'at ta'limi muammosini muhokama qilish va o'z shtatlarida badiiy ta'limni rivojlantirish uchun strategik rejalashtirish bilan shug'ullanish uchun to'playdi.

Qo'shma Shtatlarda badiiy ta'limni targ'ib qiluvchi boshqa turli xil Milliy tashkilotlar mavjud. Bularga Arts for Americans, milliy san'at ta'limi jamoatchilikni xabardor qilish kampaniyasi, badiiy ta'limni rivojlantirish assotsiatsiyasi, kollej badiiy assotsiatsiyasi va Milliy badiiy ta'lim assotsiatsiyasi san'at kabi yirik loyihalarni namoyish etadi⁹

Amerikada san'atni rivojlantiradigan, targ'ib qiladigan, qo'llab-quvvatlaydigan tashkilotlar va shaxslar tarmog'iga xizmat qilish, rivojlantirish va rahbarlik qilish bo'yicha o'z missiyasiga erishish uchun san'atni to'rtta asosiy maqsadga ajratdi:

-San'at va san'at ta'limi rivojini yanada jonli va ijodiy jamoalarga hissa qo'shadigan muhitni yaratishda yordam berish uchun shaxslar va tashkilotlarga rahbarlik qilish va xizmat qilish.

-Davlat va xususiy sektorning mazmunli siyosatini san'at va san'at ta'limi uchun ko'proq rahbarlar va resurslarni yaratish.

-San'at va san'at ta'limi qiymatini individual rivojlantirishni takomillashtirish.

-Tashkilotning operatsion barqarorligini uning imkoniyat va muammolarga ijodiy javob berish qobiliyatini ta'minlash.

Ushbu maqsadlarga davlat idoralari, biznes rahbarlari, individual xayriyachilar, o'qituvchilar va butun mamlakat bo'ylab fondlar mahalliy, davlat va milliy san'at tashkilotlari bilan hamkorlikda erishiladi.¹⁰

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak chet elda badiiy ta'lim tizimini o'qitish bir muncha farqli bo'lib unda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda kasbiy kompetentlik muammosi dolzarb hisoblanadi. Chet el mamlakatlaridagi yoshlarga xorijliklar o'zlarining milliy san'atini o'rgatish, san'atshunoslik tushunchalarini hosil qilish orqali mamlakatning rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shib kelishmoqda. Xorijda amalga oshirilayotgan san'at sohasining ta'lim tizimi orqali biz ham o'z tizimimizni xorij texnologiyasini milliyashtirgan holda ulardan andoza olib o'zimizning badiiy san'at yo'nalishlarimizga kiritib, innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy komponentini shakllantirishimiz orqali ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qilgan bo'lamiz.

⁹ https://en.wikipedia.org/wiki/Art_education_in_the_United_States

¹⁰ https://en.wikipedia.org/wiki/Americans_for_the_Arts

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Ш.Шарипов, Н.Муслимов, М.Исмоилова: “Касбий таълим педагогикаси”.Методик қўлланма. – Т. 2005 й.
2. Худойкулов Х.Ж. Жуманова Ф.У. КАСБИЙ ПЕДАГОГИКА (ЎҚУВ ҚЎЛЛАНМА) ТОШКЕНТ – 2020
3. Муслимов Н. Касб таълим ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: дис. Автореферат. -Тошкент; ТДПУ, 2007.
4. Нуртаев У. Методика изучения изобразительного искусства Узбекистана в системе подготовки будущих учителей. Автореферат. -Москва: 1994.
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Art_education_in_the_United_States
6. https://en.wikipedia.org/wiki/Americans_for_the_Arts